



**DAVLAT MOLİYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY
ASOSLARI**

Sayfiyev Sherzod Kamolidinovich

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
magistranti*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Moliyaviy barqarorlik davlat iqtisodiyoti rivojining asosiy omillaridan biri bo'lib, davlatning moliyaviy siyosatini samarali boshqarish orqali erishiladi. Maqolada davlat byudjeti, davlat qarzi, pul-kredit siyosati va makroiqtisodiy barqarorlik tushunchalari o'rganilgan. Shuningdek, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi nazariy yondashuvlar, moliyaviy risklar va ularni boshqarish mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda davlat moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun samarali iqtisodiy va moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqish zarurligi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *davlat moliyaviy barqarorligi, moliyaviy siyosat, davlat byudjeti, davlat qarzi, pul-kredit siyosati, makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy risklar, moliyaviy boshqaruv, iqtisodiy strategiya.*

Kirish. Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida davlat vazifalarining samarali bajarilishi, ayniqsa, muhim hisoblanadi. Shu boisdan, davlatning zimmasida bo'lgan ijtimoiy va siyosiy faoliyatni amalga oshirilishining moliyaviy asoslari davlat moliyasida byudjet mablag'lari bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Mamlakat davlat moliyasida byudjet islohotlari davlat xizmatlari sifatini oshirishga qaratilgan holda amalga oshirilishini nazarda tutadi. Bu esa, o'z navbatida, davlat moliyasida byudjet mablag'laridan samarali foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi.

Davlat moliyasida byudjet siyosatining mohiyati davlat zimmasidagi vazifalarni bajarishida byudjet xarajatlarining mazkur yo'nalishda amalga oshirilishi bilan belgilanishi tarixiy tajribadan ma'lum. O'z o'rnida, davlat moliyasida byudjet mablag'laridan foydalanish orqali davlat jamiyatdagi iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga harakat qiladi. Ma'lumki, moliya kategoriyasining funksiyasida taqsimlash (qayta taqsimlash) jarayoni yuzaga keladi. Moliya tizimida mamlakatdagi yaratilgan yalpi qiymatning bir qismi soliqlar yordamida byudjet tizimiga taqsimlanadi. Bunda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'zlarining daromad va mulklari hisobidan davlatga majburiy to'langan soliqlar davlat ixtiyoriga kelib tushadi. Natijada, moliyaning qayta taqsimlash funksiyasi yordamida davlat ixtiyorida jamlangan mablag'lar byudjet yordamida qayta taqsimlanadi. Mazkur jarayonda esa, davlat mamlakatda tinchlik, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash vazifalarini moliyaviy ta'minlash uchun yo'naltiradi.

Shu boisdan, byudjet xarajatlari doirasida davlatda mavjud bo'lgan vazifalarni optimallashtirish orqali mablag'lardan samarali foydalanishning zaruriyati kelib chiqadi.





Fikrimizcha, mazkur vazifalarni moliyaviy mablag'larning hajmi bilan emas, balki bozor mexanizmlarining ishlash prinsiplari asosida takomillashtirish muhim hisoblanadi. Sababi, mablag'larning yetishmasligidan vazifalarni qisqartirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Byudjet xarajatlarini optimal taqsimlash, eng dolzarb masalalarni o'zida aks ettirgan sohalarga mablag'larni yo'naltirish byudjet siyosatining ustuvorliklarini o'zida aks ettiradi.

A.Smit o'zining nazariyasida davlat zimmasida bir qator majburiyatlar mavjudligini qayd etib o'tib, davlat byudjetidan moliyalashtirish nuqtai nazaridan quyidagi uchta sohaga e'tibor qaratadi (Smit A. Issledovaniye o prirode i prichinax bogatstva narodov. http://www.pseudology.org/business/Adam_Smith_Bogatstvo_narodov2.pdf):

- mudofaaga xarajatlar;
- adolat (ijtimoiy tenglik nazarda tutilgan) uchun xarajatlar;
- jamoat ishlari va jamoat muassasalari uchun xarajatlar.

Mudofaaga xarajatlar haqida fikr yuritilganda, davlat tomonidan tinchlik davrlarida ham harbiy xarajatlarning amalga oshirilishi va uning zaruriyati to'g'risidagi yondashuvlarni bayon etib o'tadi. Adolat nuqtai nazaridan xarajatlarni amalga oshirishda aholini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash nazarda tutiladi. Jamoat muassasalarini moliyalashtirish haqida fikrlar bildirilganda, aholining tayanch ta'lim olish va kasbga yo'naltirish borasidagi davlat xarajatlari muhim o'rin tutishi qayd etib o'tiladi. A.Smit bozor iqtisodiyoti davlat aralashuvisiz tinchlik yoki ijtimoiy adolatni ta'minlay olmasligini ta'kidlab o'tadi. Shu nuqtai nazardan, eng yaxshi byudjet – bu balanslashtirilgan byudjet, deb qayd etib o'tgani alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Amir Temur davrida ham byudjet siyosatining o'ziga xos fundamental asoslari yaratilgan. Jumladan, Sohibqiron saltanatida bir nechta vazir faoliyat olib borgan. "Birinchii vazir mamlakat va aholi ishlari vaziri bo'lgan, u soliq va o'lponlarni to'plash, taqsimlash, kirim-chiqimlarni belgilash va hisob-kitob qilish, mamlakatning obodonligi bilan shug'ullangan. Ikkinchi vazir – qo'shinlar vaziri bo'lib, u askarlar (sipohiy)ga beriladigan maosh, xizmat evaziga beriladigan yer-suv yoki boshqa mulkni idora qilgan. Uchinchi vazir – egasiz qolgan mulklarni boshqarish va davlatga tushadigan zakot hamda bojlarni saqlash bilan shug'ullangan. Qolgan uchta vazir chegara tumanlaridagi moliyaviy masalalar bilan shug'ullangan. Hadya qilingan mamlakatlarda soliqlarni yig'ib, aholining kayfiyatini kuzatib turuvchi, xarajatlarni chiqim daftariga yozib boruvchi ikki nafar vazir tayinlangan. Barcha vazirlar devonbegiga bo'ysunganlar (Muqimov Z. Amir Temur tuzuklari (tarixiy-huquqiy tadqiqot). Ikkinchi to'ldirilgan nashri. – Samarqand: SamDU, 2008. – 131 bet.).

Ta'kidlash lozim, byudjet xarajatlarning dolzarb iqtisodiy ko'rsatkich ekanligi, uning mavjud bo'lishi davlatning zimmasidagi vazifalarning yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Fikrimizcha, byudjet siyosatining nazariy jihatlari A.Smitning asarlarida o'z aksini topib, unda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini moliyalashtirish zaruriyatining konseptual asoslari aks ettirilgan. Unda davlat uchun birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy



barqarorlik bilan birga, ijtimoiy soha xarajatlari ham ko'rsatib o'tilgan.

Bizningcha, Amir Temur tuzuklarida davlat byudjeti tajribasining aniq amaliy fundamental asoslari yaratilgan va sinovdan muvaffaqiyatli o'tkazilgan. Qayd etish lozim, byudjetning obodonlashtirish xarajatlari bilan birga, mulklarni davlat ixtiyoriga o'tkazish kabi noyob amaliy tajribalarni ham ko'rish mumkin. Hattoki, bojxonada jamlanuvchi soliqlarga ham alohida e'tibor berilganligi ushbu tajribaning ilg'or xususiyatga egaligini isbotlab turibdi.

Umuman olganda, byudjet xarajatlari mamlakatdagi qo'shilgan qiymatning ma'lum qismini iqtisodiyotning o'ziga qayta taqsimlash orqali muvozanatlashgan taqsimotni ta'minlab turadi. Uning obektiv sababini tinchlikni yoki ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan faoliyatni xususiylashtirishga yo'l qo'yib bo'lmasligi bilan izohlash mumkin.

Byudjet siyosatining ilmiy-nazariy asoslariga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar o'zbekistonlik olimlar tomonidan ham amalga oshirilgan. Jumladan, B.Jo'rayev bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat byudjetining rolini tadqiq etgan (Jo'rayev B.A. Bozor iqtisodiyoti sharoitida Davlat byudjetining roli: i.f.n. avtorferat. –Toshkent, BMA: 2001. – 21 b.). U byudjet orqali davlatni boshqarishda uchta tamoyilni ko'rsatib o'tadi, bular – samaradorlik, barqarorlik va ijtimoiy adolatlilik. Shuningdek, byudjetning barqarorligini ta'minlashda xarajat vakolatlarining bo'linishi ma'lum tamoyillarga asoslanishini ta'kidlab o'tadi. Xususan, ular quyidagilardir:

- xarajat vakolatlarining byudjet xizmatidan foydalanuvchilarga mumkin qadar yaqinligi;
- bir qator xarajatlarni markazlashgan tartibda amalga oshirishning foydaliligi;
- tashqi samaraning hisobga olinishi.

G.Qosimova ijtimoiy-madaniy tadbirlarni rivojlantirishda byudjet siyosatining roli borasida tadqiqotlar olib borgan (Qosimova G.A. Ijtimoiy-madaniy sohalarni rivojlantirishda byudjet siyosatining roli (O'zbekiston Respublikasi misolida): i.f.n. avtorferat. –Toshkent, BMA: 2001. – 21 b.). Muallif ijtimoiy soha xarajatlarini moliyalashtirishda nafaqat byudjet mablag'laridan foydalanish, balki xususiy sektor moliyaviy resurslarini keng jalb etgan holda amalga oshirish muhimligini qayd etib o'tadi. Jumladan, ta'lim tizimida qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatish orqali daromad keltiruvchi faoliyatlarga urg'u berilgan bo'lsa, tibbiy xizmatlarning ta'minlanishida tibbiy sug'urta amaliyotining rivojlantirilishi lozimligi ta'kidlab o'tiladi. Shuningdek, byudjet xarajatlari ijrosini ta'minlashda g'aznachilikning joriy etilishi natijasida ijro bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning qisqarishiga erishish mumkinligi, mamlakatimizda g'aznachilik to'g'risidagi qonunchilik qabul qilinishidan bir yil oldin, bu tizimga o'tishdan to'rt yil oldin aytib o'tiladi. Shu bilan birga, xususiy pensiya fondlarini tashkil qilishning ham afzallik jihatlari ko'rsatib o'tiladi.

Qayd etish lozim, yuqoridagi olimlarimiz tomonidan shakllantirilgan ilmiy xulosalar zamonaviy xususiyatga ega bo'lmoqda. Jumladan, xarajatlar vakolatining byudjet



xizmatidan foydalanuvchilarga yaqin bo'lishi haqida fikr yuritilganda, byudjetning shaffofligi, byudjet xarajatlarini jamoatchilik fikri asosida amalga oshirish mumkinligi bilan izohlash to'g'ri bo'ladi. Bu esa, 2018 yildan rivojlana boshlagan fuqarolar uchun byudjet konsepsiyasining shakllanishi bilan uyg'un keladi.

Bu borada, mamlakatimizda yetarli darajada tajriba to'plangan, deb o'ylaymiz. Masalan, o'z-o'zini boshqarish subekti bo'lgan mahalla instituti jamoatchilik nazoratining ro'yobga chiqarilishida muhim rol o'ynaydi. Byudjet siyosatining amalga oshirilishida jamoatchilikning ishtiroki to'g'risidagi jihatlariga xorijlik olimlar tomonidan ham e'tibor qaratilgan.

Jumladan, jamoatchilik boshqaruvi tamoyillari to'g'risida YE.Duplinskaya quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi (Duplinskaya YE.B. Otsenka rezultativnosti byudjetnogo regulirovaniya v usluvoiyax modernizatsii publichnogo upravleniya: avtoreferat ... k.e.n. - NOU VPO «Sibirskaya akademiya finansov i bankovskogo dela». - Novosibirsk, 2011. – 20 s.). Ular: barqarorlik, jamoatchilikning ishtiroki, manfaatdorlik, javobgarlik kabi jihatlardir.

Mamlakatimizda jamoatchilik boshqaruvining ishtirokini nazarda tutuvchi islohotlar boshlangan bo'lsada, ba'zi xarajatlarni markazlashtirilgan holda ta'minlanishi dominant xususiyatga egaligi ko'zga tashlanmoqda. Masalan, mudofaa va huquqni muhofaza qiluvchi soha xarajatlarini keltirish mumkin. Shuningdek, byudjetga moliyaviy yukni kamaytirish maqsadida, byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish mexanizmiga shart-sharoit yaratish haqida xulosalar berilgan.

Shuningdek, ish haqiga asoslangan holda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi nisbatni aniqlash metodologiyasi A.Moiseyev tomonidan ilgari suriladi. Bu orqali "davlat qiymati" kategoriyasini baholash imkoni vujudga kelishini qayd etib o'tadi. Bunda davlat va xususiy sektorda mehnatga haq to'lashning har bir soati uchun o'zaro nisbatni aniqlash orqali qaysi sektor ko'p haq to'lanayotganligini aniqlash uslubini taklif etadi. Mazkur olim bir nechta davlatning ushbu ko'rsatkichlarini o'zaro tahlil etib chiqadi. Natijada, bir qator (Germaniya, Estoniya, Slovakiya, Shvetsiya va AQSH) mamlakatlarda davlat sektori xususiyga nisbatan 30 foiz ko'p bo'lsada, ish haqidagi farqlar sezilarli darajada emasligi ma'lum bo'ladi (Moiseyev A.K. Makrofinansovaya politika ekonomicheskogo rosta: avtoreferat ... d.e.n. – Institut narodnoxozyaystvennogo prognozirovaniya RAN. – Moskva, 2017. – s. 45).

Ta'kidlash lozimki, byudjet makroiqtisodiy miqyosda daromadlarni muvozanatlash vositasi sifatida ham o'z vazifasini bajaradi. Mazkur masala nafaqat tarixiy jihatdan, balki zamonaviy jihatdan ham tadqiqotlarda o'z aksini topmoqda.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, "byudjet" tushunchasi byudjet muassasalarining o'zaro iqtisodiy munosabatlarini o'zida aks ettirgan kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa ba'zi zamonaviy nazariyalarda tor munosabatlarni aks ettiradi, degan fikrni o'rtaga olib chiqadi. Masalan, neoinstitusional nazariyada byudjet davlatning huquqiy tuzilmasi bilan bog'liq tarzda yuzaga kelishi qayd etib o'tiladi. Bu esa byudjetga ichki tomondan iqtisodiy munosabatlar yig'indisi sifatida, tashqi tomondan huquqiy tuzilma tarzidagi qarashlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan, byudjet siyosatini ishlab chiqishda, fikrimizcha, unga ham





iqtisodiy, ham huquqiy munosabat tarzida yondashish zarurati yuzaga chiqadi.

N.Kozlov mahalliy boshqaruv vakolatlarini amalga oshirishning moliyaviy ta'minotini o'ziga xos jihatlarini ko'rib o'tadi (Moiseyev A.K. Makrofinansovaya politika ekonomicheskogo rosta: avtoreferat ... d.e.n. – Institut narodnoxozyaystvennogo prognozirovaniya RAN. – Moskva, 2017. – s. 45.). Jumladan, Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi byudjetlari o'rtasida daromad va xarajatlarni chegaralash tamoyilini xarajatni amalga oshirish vakolatlari adekvatligi va mezonliligini inobatga olgan holda shakllantirishni qayd etadi. Shuningdek, mahalliy boshqaruv organlariga o'z funktsiya va vazifalarini bajarishida ularga ma'lum daromadlarni birlashtirish zaruriyatini asoslab beradi.

Umuman olib qaralganda, federativ davlatlarda hududiy byudjetlarning daromad va xarajatlarini mustaqil boshqarish vakolatlari keng ekanligi ma'lum. Hozirgi kunda unitar tuzilishga ega bo'lgan davlatlarda ham hududlarning mazkur turdagi vakolatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yildagi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasida: "mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilash", degan qoida belgilangan. Mazkur qoida 2013 yilda kiritilgan o'zgartirish natijasida yuzaga kelganligi inobatga olinsa, hududiy barqarorlikni ta'minlashda hududiy byudjet siyosati yuritilishining rolini oshirish nazarda tutilayotganligini anglash mumkin.

Bu borada, o'zbekistonlik olimlardan A.Suvanov (Suvanov A.T. Mahalliy byudjetlar ijrosi samaradorligini oshirish yo'nalishlari (Namangan viloyati misolida): i.f.n. avtoreferat. – Toshkent: BMA, 2005. – 21 bet.) byudjet munosabatlariga institusional jihatdan qarab, uni tartibga solishda byudjetlararo munosabatlarni, ularni tartibga soluvchi daromadlarini qayd etadi. Jumladan, mahalliy byudjetlar oldida quyidagi muammolar mavjudligini ta'kidlaydi:

- byudjet mablag'larining hududlar bo'yicha taqsimotida xarajatlar ko'lamini hamda mablag'larning cheklanganligi oqibatida byudjet resurslariga bo'lgan ehtiyojni qondira olmaslik muammosi yechimini topish;
- byudjet tizimida mahalliy byudjetlarning mustaqilligi haqida va uning moliyaviy-iqtisodiy zaminlariga doir tortishuvlarning ilmiy asoslanishini hamda bu boradagi huquqiy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish;
- rivojlangan mamlakatlar byudjet amaliyotida keng qo'llanilayotgan byudjet resurslarini byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash jarayonidagi tegishli asoslar va mezonlarga amal qilish muammosi hamda ularning hal qilinishi.

Byudjet siyosatiga hududlarning moliyaviy barqarorligi jihatidan baho berish xorijlik olimlardan S.Bogomolovning ham ilmiy ishlarida namoyon bo'ladi. Olim tomonidan byudjet tizimi barqarorligini ta'minlashda quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish taklif etilgan (Bogomolov S.V. Otsenka byudjetnoy ustoychivosti i effektivnosti upravleniya byudjetnimi sredstvami munitsipal'nix obrazovaniy i subekta RF: avtoreferat ... k.e.n. – GOU VPO «Nijgorodskiy gosudarstvenniy universitet im. N.I. Lobachevskogo». - Nijniy Novgorod,



2010. – s. 28.):

- hudud va hududiy tuzilmalar byudjetlari daromad/xarajatlari moddalarini guruhlashtirish va unifikatsiyalash orqali byudjet ijrosi hisoboti ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;
- hududlarda byudjet barqarorligi jami indikatorlar tizimi asosida baholash uslubi ishlab chiqilgan;
- hudud va hududiy tuzilmalar byudjet barqarorligini moliyaviy oqimlarni inobatga olgan holda byudjet risklarini baholash tizimi shakllantirilgan;
- byudjet xarajatlari mezonlari tizimi ishlab chiqilgan.

Shuningdek, byudjet siyosatiga institusional jihatdan yondashgan olimlarimizdan biri X.Qurbonov (Qurbonov X.A. Byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish: i.f.n. ... avtoreferat. – Toshkent: BMA, 2010. – 22 bet.) hisoblanadi. U byudjetlararo munosabatlarni asoslashda quyidagi tamoyillarni keltirib o'tadi:

- byudjet tizimining bo'g'inlari o'rtasida byudjet xarajatlarining taqsimlanishi va biriktirilishi;
- byudjet tizimining turli darajalari bo'yicha tartibga soluvchi daromadlarning chegaralanishi;
- turli darajadagi byudjetlarning tengligi;
- hududlar iqtisodiy salohiyatidan foydalanishni rag'batlantirilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqahhorov, M. (2018). Davlat moliyasining nazariy asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
2. Islomov, S. (2020). Moliyaviy barqarorlik va davlat siyosati. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti.
3. Karimov, D. (2019). Pul-kredit siyosati va uning iqtisodiy barqarorlikdagi roli. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Nashriyoti.
4. Rasulov, A. (2021). Moliyaviy risklarni boshqarish tizimi. Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar markazi.
5. Salimov, B. (2017). Davlat byudjeti va moliyaviy boshqaruv. Toshkent: Iqtisodiy fanlar jurnali, 3-son, 45-52-betlar.